



Received: January 15, 2022

Accepted: February 27, 2022

Available online: March 25, 2022

Ilyos Ismoilov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

ISKANDAR VA GADO ZIDDIYATI: NAVOIY TASVIRLARINING QADIMIY ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Badiiy adabiyotda Iskandar haqida asar yozish an'anasi uzoq tarixga ega va bu mavzuning bir asosi G'arb, bir asosi Sharq manbalariga tayandi. Asrlar davomida tarix, din, adabiyot, folklor, axloq va hikmat kabi sohalarda Iskandar shaxsi va faoliyatiga aloqador ma'lumotlar qayd etilgan, asarlar yaratilgan. Xususan, sharq adabiyotida keng ommalashgan xamsanavislik an'anasida alohida bir dostonni Iskandar mavzusiga bag'ishlash shart qilib qo'yilgan. Bu, tabiiyki, ijodkorlarga an'ana doirasida original asar yaratish mas'uliyatini yuklagan. Shu bois har bir xamsanavis, jumladan, Alisher Navoiy ham Iskandar mavzusidagi dostoni salaflarinikidan farqlanib turishiga, mustaqil ijodkor sifatida ijodiy individuallik ko'rsatishga intilgan. Navoiy bu borada asosiy e'tiborini yangi va tarixiy asoslarga tayanuvchi adabiy materiallarni dostoniga olib kirish, ularni o'z dunyoqarashi asosida badiiy talqin qilishga qaratgan. Navoiy xamsanavislikda Iskandar haqida doston yozish an'anasiga olib kirgan shunday yangi lavhalardan biri – "Iskandar va gado" hikoyatidir. Hikoyat o'zining qadimiy asoslarga tayanishi, murakkab transformatsiya jarayonlaridan o'tgani va "Saddi Iskandariy" dostonini tushunishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molik.

Ushbu maqolada Navoiy tasvirlagan "Iskandar va gado" hikoyatining genezisi, manbalarini, hikoyatning transformatsiyasi, Sharqda qayta ishlaniishi va bu jarayonda Alisher Navoiyning o'rni, ijodiy individualligi, hikoyat takomiliga qo'shgan hissasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Iskandar (Aleksandr), gado, Alisher Navoiy, hikoyat, genezis, transformatsiya, badiiy talqin.

Ilyos Ismoilov

Doctor of Philosophy in Philology (PhD),
Doctoral Student, Alisher Navoiy Tashkent State
University of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ismoilov_iles@mail.ru

THE CONFLICT BETWEEN ALEXANDER AND THE PAUPER: ANCIENT SOURCES OF NAVOI'S IMAGES

ANNOTATION

The tradition of writing about Iskander (Alexander the Great) in literature has a long history, with some sources based on Western and some on Eastern sources. Over the centuries, information about Alexander's personality and activities in the fields of history, religion, literature, folklore, ethics and wisdom have been recorded and created. In particular, in the tradition of Khamsanavism, which is widespread in Eastern literature, it was necessary to dedicate a special epic to the theme of Alexander. Of course, it put the creators in charge of creating originality within the tradition. That was why every writer, including Alisher Navoi, strived to be different from his predecessors in the epic on the theme of Alexander, to show a creative individuality as an independent artist. In this regard, Navoi focused on the introduction of new and historical literary materials in the epic, their artistic interpretation on the basis of his own worldview. One of such new texts, which introduced Navoi to the tradition of writing epics about Alexander, is the story of "Iskandar and Gado (pauper)", which, was based on ancient principles, underwent complex transformations and played an important role in understanding the epic "Saddi Iskandari". This article examines the genesis and sources of Navoi's story "Iskandar and Gado", the transformation of the story, its processing in the East, and the role of Alisher Navoi in this process, his creative individuality and his contribution to the development of the story.

Key words: Iskandar (Alexander the Great), gado (pauper), Alisher Navoi, story, genesis, transformation, artistic interpretation.

KIRISH

Alisher Navoiy ijodining mazmun-mohiyati faqat o‘ziga tayanib tahlil etilsa, olingen xulosalarni ishonchli deyish qiyin. Chunki Navoiy davri adabiyoti an’anaga tayangan, mavjud yutuqlardan yangicha qarash va tajribalar yo‘lida foydalangan adabiyot edi. Davr adabiyotiga xos ushbu xususiyat muayyan ijodkorning yangili-gi, individualligi va mavjud an’anaga qo‘shgan hissasini aniqlashni qiyinlashtiradi, tadqiqotchiga murakkabliklar tug‘diradi. Bu vaziyatda muallifga xos originallikni aniqlashning eng yaxshi yo‘li – genetik tahlil bo‘lib, bu orqali muayyan badiiy hodisa-ning genezisi va taransformatsiyasi jarayonlarini kuzatish hamda masalaning o‘sha ijodkorgacha qanday yo‘lni bosib o‘tgani-yu muayyan ijodkor unga o‘zidan nima qo‘shganligini kuzatish mumkin. Aslida, muayyan ijodkorning o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan an’ana yoki jarayonga “nima qo‘shganligi” tadqiq jarayonida asosiy e’tiborda bo‘lishi kerak, ana shunda uning haqiqiy salohiyati, kuchi ma’lum bo‘ladi. Agar tad-qiqot jarayonida masalaga genetik yondashuv bo‘lmasa, faqat mavjud matnga qarab xulosa qilinsa, biror an’ana yoki adibdan tayyor o‘tgan, shakllanib bo‘lgan an’anaviy hodisani boshqa ijodkorga nisbat berish, natijada bироqlama xulosalarga kelish mum-kin. Shu bois an’analarga tayangan temuriylar davri adabiyotida Alisher Navoiyning ijodiy o‘ziga xosligi, ijodkor sifatida mavjud an’ana va sujetlarga kiritgan yangilikla-rini aniqlashning eng yaxshi yo‘li, bizningcha, genetik tahlildir.

Navoiyning serqatlam ijodi genetik tahlil uchun boy manba bo‘la oladi. Mu-tafakkirning asarlari, ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlari o‘zining genezisi, qadimiy sarchashmalari va tadrijiy takomili bilan diqqatga sazovor. Aytish mumkinki, Navoiy ijodining barhayotligi, o‘lmasligining asosiy sabablaridan biri ham uning qadimiy asoslarga tayanishidir. Mazkur fikrlarning yorqin isbotini Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni misolida ko‘rish mumkin. Xususan, ushbu dostondagi “Iskandar bila ul gadolig‘ ixtiyor etgan podsho...” sarlavhali dastlabki hikoyat Navoiy tasvirla-gan sujet, epizod, hikoyat va har bir obraz o‘zining chuqr tarixiy ildizlariga ega ekan-ligini, teran asoslarga tayanishini isbotlaydi. Navoiy tasvirlarining asoslarini topish va ularni o‘zaro qiyoslash, umumiyligi va farqli jihatlarni aniqlash esa daho san’atkori ijodi mohiyatini, qarashlarini tushunishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

“Iskandar va gado” hikoyati “Saddi Iskandariy” dostonini tushunishda shu qadar muhim ahamiyat kasb etadiki, u orqali Navoiyning dostonni yozishda oldiga qo‘ygan bosh adabiy maqsadini, bosh qahramon qiyofasi va muallif ideallarini ang-lash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu hikoyat “Saddi Iskandariy” dostonining ramziy kalitidir. Navoiy tasvirlagan “Iskandar va gado” hikoyati genezisi va qadimiy asoslarini konkretlashtirish uchun mazkur hikoyatni sinchiklab ko‘zdan kechirish, uning alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lgan qismlarini belgilab olish kerak. Bu ning uchun, dastlab, Navoiy hikoyatining fabulasi bilan tanishib chiqish zarur bo‘ladi:

Iskandar mag‘rib zaminini fath etar ekan u yerning bir hukmdori janglarda halok bo‘ladi. Iskandar shu yerlik, shohlik ishidan xabardor kishini o‘rniga hukmdor qilib tayinlashni istaydi. Odamlardan surishtirib, podshozodalardan bo‘lgan, ammo taxt-

ni tark etib, qabristonda faqirona hayot kechiruvchi gado haqida eshitadi. Iskandar ning huzuriga keltirishganida gado ikkita kalla suyagini ko'tarib olgan edi. Iskandar gadodan bu suyaklar hikmatini so'raydi, gado necha zamonlardan beri ulardan qay biri shohniki-yu qay biri gadoniki ekanligini ajrata olmasligini, modomiki, o'lgach hamma bir xil ekan, tiriklikda nizolashishlarini tushuna olmasligini aytadi. Gadoning oqilligiga qoyil qolgan Iskandar agar himmati ham bo'lsa, uni shu yurtga hukmdor qilmoqchiligin aytadi. Gado himmati borligi, ammo himmati Iskandar o'ylaganidek past emasligi, uning himmati to'rt narsa: abadiy hayot, qariligi yo'q yigitlik, tunganmas boylik, g'ami yo'q shodlik tilashi haqida aytadi. Iskandar gadoning yuksak istaklarini bajara olmaslididan va buyuk himmat sohibi bo'lган gadoga taklif qilgan haqir narsasidan uyaladi va garchi taqdir meni aziz qilgan bo'lsa ham, senga himmatni menikidan balandroq berdi, biroq men ham taqdir izmidagi odamman [Navoiy A., 2006; 72-75].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Navoiy tasvirlagan ushbu hikoyatni, dastlab ikki katta qisimga, o'z navbatida, bu qismlarni ham ikkitadan kichik ichki qismlarga ajratish mumkin. Hikoyatni bunday bo'laklarga ajratishda voqealar rivojining burilish nuqtalari, yangi obraz, motivlarning paydo bo'lishi, genetik kuzatish natijalari asos bo'ldi. Bunday tuzilishni konkret tasavvur etish uchun uni jadvalda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1-jadval.

Hikoyatning I qismi

- | |
|---|
| I. (1) Iskandar Mag'rib zaminini fath etar ekan u yerning bir hukmdori janglarda halok bo'ladi. Iskandar shu yerlik, shohlik ishidan xabardor kishini o'rniga hukmdor qilib tayinlashni istaydi. Odamlardan surishtirib, podshozodalardan bo'lган, ammo taxtmi tark etib, qabristonda faqirona hayot kechiruvchi gado haqida eshitadi. |
| (2) Iskandarning huzuriga keltirishganida gado ikkita kalla suyagini ko'tarib olgan edi. Iskandar gadodan bu suyaklar hikmatini so'raydi, gado necha zamonlardan beri ulardan qay biri shohniki-yu qay biri gadoniki ekanligini ajrata olmasligi, modomiki, o'lgach hamma bir xil ekan, tiriklikda nizolashishlarini tushuna olmasligini aytadi. Gadoning oqilligiga qoyil qolgan Iskandar agar himmati ham bo'lsa, uni shu yurtga hukmdor qilmoqchiligin aytadi. |

2-jadval.

Hikoyatning II qismi

- | |
|---|
| II. (1) Gado himmati borligi, ammo himmati Iskandar o'ylaganidek past emasligi, uning himmati to'rt narsa: abadiy hayot, qariligi yo'q yigitlik, tunganmas boylik, g'ami yo'q shodlik tilashi haqida aytadi. |
| (2) Iskandar gadoning yuksak istaklarini bajara olmaslididan va buyuk himmat sohibi bo'lган gadoga taklif qilgan haqir narsasidan uyaladi va garchi taqdir meni aziz qilgan bo'lsa ham, senga himmatni menikidan kattaroq berdi, biroq men ham taqdir izmidagi odamman. |

Jadvalda ko'rsatilgan rim va arab raqamlari Navoiy tasvirlagan hikoyatning alohida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lган qismlarini bildiradi, bizningcha, mana shu qismlar va detallarning qo'shilishidan "Iskandar va gado" hikoyatining Navoiy tasvirlagan varianti hosil bo'lган hamda bu qismlarning har biri o'ziga xos genezisiga ega. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ushbu hikoyat va qismlarining aksariyati genezisiga ko'ra antik davrda Aleksandr Makedonskiy bilan bog'liq holda yaratilgan asarlarga borib taqaladi. Biroq ularning yaxlit hikoya bo'lib shakllanishi, Navoiy tasvirlagan

kompozitsiyaga kelishi va islom ta’limoti g‘oyalari targ‘ibiga yo‘naltirilishida ko‘proq sharqlik ijodkorlar muhim rol o‘ynagan. Quyidagi tahlillar esa ushbu hikoyatning ilk manbalari, tarixiy-adabiy asoslari va ularning islom ta’siri ostidagi Sharq adabiyotiga transformatsiyasi, bu jarayonda yuz bergen o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Hikoyatning birinchi qismi (I) genezisi. Navoiy hikoyasining birinchi qismi (I) tarixiy voqeasida shakllangan va u antik davr tarixchilaridan Kvint Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asarida bayon qilingan. Ruf o‘z asarida sharqda keng tarqalgan va Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida muhim adabiy-estetik vazifa bajargan “Iskandar va gado” hikoyasi birinchi qismining tarixiy asoslarini qayd etgan. Ta’kidlash kerakki, bu kabi qaydlar Diodor, Arrian va Plutarx singari Aleksandr tarixini yozgan tarixchilarning asarlarida uchramaydi. Rufning yozishicha, bu voqe Aleksandr dastlabki jangda Doroni mag‘lub etgach, Sidon (qadimgi Finikiyadagi shaharlardan biri, O‘rtal yer dengizining Liviyaga qaragan sharqiy sohilida joylashgan) degan joyga kelganida sodir bo‘lgan. Tarixchi bu voqeani shunday xotirlaydi: “15. Aleksandrning o‘zi Finikiyaga tushdi, u yerda Bibl shahri uning rahm-shafqatiga taslim bo‘ldi; u yerdan o‘zining qadimiyligi va asoschilarining shon-shuhrati bilan mashhur Sidonga yo‘l oldi. 16. U yerda Doro tomonidan qo‘llab-quvvatlagan Stratio hukmronlik qilardi va u shaharni o‘z xohishi bilan emas, balki xalq irodasi bilan Aleksandrning rahm-shafqatiga topshirgani uchun qiroq hokimiyatiga noloyiq deb topildi; Gefestionga u yerda yuksak qadr-qimmatga munosib deb topilgan sidonliklardan shoh tayinlash buyurildi. 17. Gefestionning u yerdagi yosh yurtdoshlar orasida ancha shuhrat qozongan do‘stlari bor edi, lekin ular qirollik hokimiyatini qo‘lga kiritish imkoniga ega bo‘lgach, ota-bobolar odatiga ko‘ra, faqat qiroq oilasining avlodigina yuqori martabaga ko‘tarilishi mumkinligini aytishdi. 18. Gefestion o‘zgalar o‘t va qilich bilan izlagan narsani rad etuvchi bu xalq ruhining yuksakligidan hayratga tushdi va shunday dedi: “Mardligingizga sharaflar bo‘lsin, shoh hokimiyatidan voz kechish uni qabul qilishdan qanchalik xayrliroq ekanini birinchi bo‘lib angladitingiz. Qirol oilasidan kimnidir ko‘rsating, toki u sizdan qirollik qadr-qimmatini olganini unutmasin”. 19. Ko‘philik bu umidlarda ruhlanib, ...Abdaloniidan munosibroq odam yo‘q, deb qaror qildilar; u qiroq oilasi bilan uzoq qarindoshlik orqali bog‘langan, ammo qashshoqlik tufayli u o‘zining kamtarona bog‘ini o‘stiradi. 20. Uning kambag‘alligiga sabab, ko‘philik kabi, halolligi edi; kundalik yumushlari bilan band bo‘lib, butun Osiyoni larzaga solgan quroq-yarog‘larning jaranglagan ovozini ham eshitmadni. 21. Shu zahoti buyurilgan shaxslar qo‘llarida qirollik liboslari bilan bezatilgan, u paytda Abdalonim quruq o‘tlardan tozalayotgan bog‘ga kirib kelishdi. 22. Shunda kelganlardan biri unga podshoh sifatida salom berib: “Qo‘limda ko‘rgan kiyimingga egningdagagi lattalarining almashtirishing kerak. Uzoq muddatli mehnat bilan ifloslangan, qirollik ruhi bilan to‘ldirilgan tanangizni yuvying, lekin siz uchun juda mos bo‘lgan yangi martabangizda kamtarligingizni saqlang. Qirollik taxtiga barcha fuqarolarning hayoti va o‘limi ustidan hakam sifatida o‘tirganingizda, Gerkules haqqi, avvalgi ahvolingiz va shohlikni nimaning evaziga qabul qilganingizni unutmang. 23. Bularning bari Abdalonimga

qandaydir tushdek tuyuldi, keyin uning aqli joyidami yoki yo‘qligini so‘ray boshladi, chunki ular uning ustidan shafqatsizlarcha kulishyotgandek tuyulardi; hali ham ishonmay turganida juldir kiyimlari yechib olindi va unga binafsha-yu oltin bilan bezatilgan kiyim kiydirildi, hozir bo‘lganlar unga qasamyod qilganda u haqiqiy shoh kabi o‘sha hamrohlari bilan saroyga yo‘l oldi. 24. Bu haqidagi mish-mishlar, odatdagidek, tezda butun shaharga tarqaldi; ba’zilarga xush keldi, boshqalarda esa g‘azab uyg‘otdi; barcha boylar Abdalonimga Aleksandrning do‘stlari oldida qashshoqligi va kamtarona mavqeyi uchun tanbeh berdilar. 25. Aleksandr darhol uni chaqirishni buyurdi va unga uzoq tikildi. “Sening tashqi ko‘rinishing, – dedi u, – zotingning sharafiga zid emas, lekin menga qashshoqligingga sabr-toqat bilan chidaganingni bilish qiziqroq. Keyin u javob berdi: “Qirollik hokimiyatiga ham shunday qat’iyat bilan chiday olsam, yaxshi bo‘ladi! Men istaklarimni doim o‘z qo‘llarim mehnati bilan qondirganman; Hech narsam yo‘q, men hech qachon hech narsaga muhtoj emasman”. 26. Aleksandr Abdalonimning bu so‘zlaridan qalbining yuksak fazilatlariga ishonch hosil qildi; Shunday qilib, Aleksandr unga Stratoianing barcha qirollik mulkinigina emas, balki Fors o‘lkasining ko‘p qismini topshirdi, bundan tashqari, shaharga tutash hududlarni ham unga bo‘ysundirdi” [Ruf K.K., 1993; 47-48].

Ruf tasvirlagan ushbu tarixiy voqealari Sharq adabiyotida keng tarqalgan va Navoiying “Saddi Iskandariy” dostonida metodologik ahamiyat kasb etgan birinchi hikoyatning asosi bo‘lib, unda Navoiy tasvirlagan hikoyat bilan parallelarni kuzatish mumkin:

3-jadval.

№	Voqealar ketma-ketligi	
	Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asarida	Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida
1.	Aleksandr Sidon shahrining Doro tomonidan tayinlangan va doroparast noibi Strationi taxtdan tushirib, o‘rniga sidonliklar sulusidan chiqqan hukmdorni tayinlamoqchi bo‘ladi.	Iskandar Mag‘rib zaminini fath etar ekan, u yer-ning hukmdori jangda halok bo‘ladi, shu bois Iskandar yerli aholidan bo‘lgan podshohzodalardan biriga taxtni topshirmoqchi bo‘ladi
2.	Aleksandr do‘sti Gefestionni bu ishga mas’ul etib tayinlaydi, Gefestion sidonlik do‘stlaridan birini taxtga chiqarishni xohlaysidi, ammo ular sidonliklar odati bo‘yicha shohning avlodni bo‘lganlargina taxtga chiqishi kerakligini aytishadi.	Skandar chu fahm etti xasmin qatil, Anga mulki ichra tilatti adil. Dedikim: “Bu kishvar salotinidin, Xabarliq jahonbonliq oyinidin, Qolibmu ekin bir aningdek kishi Ki, qilsam ruju’ anga bu mulk ishi? Ani elga shoh aylasam mustaqil Ki, mulk o‘zgaga bo‘lmasa muntaqil”.

3.	<p>Gefestion sidonliklardan chiqqan hukmdorlarning avlodi qolganmi deb so'raydi va u yerliklar maslahatlashib Abdalonim ismli kishini aytishadi. U qirol oilasi bilan uzoq qarindoshlik orqali bog'langan, ammo qashshoqlik tufayli u o'zining kamtarona bog'ini parvarishlardi. Kambag'alligining sababi, ko'pchilik kabi, halolligi edi; kundalik yumushlari bilan band bo'lib, butun Osiyoni larzaga solgan qurol-yarog'larning jaranglangan ovozini ham eshitmadi, deyishadi.</p>	<p>Iskandar xaloyiqdan hukmdorlar avlodidan bo'lgan, podshohlik qila oladigan kimdir bormi, deb so'raganida xaloyiq faqat bitta shunday kishi borligi, ammo u taxtni tark etib, xalqqa aralashmay qabristonda yashab yurishini, elni fano sari targ'ib etuvchi nasihatlar aytib yurishi haqida xabar berishadi.</p>
4.	<p>Gefestionning topshirig'i bilan shu zahoti bir necha kishi borib, Abdalonim quruq o'tlardan tozalayotgan bog'ga kirib, juldir kiyimlarini yechtirib, uni shohona kiyintirib, saroya olib kelishadi.</p>	<p>Iskandar u odamni topib keltirishni buyuradi va xodimlar uni Iskandarning huzuriga olib keladilar.</p> <p style="text-align: center;">Yalang erdi boshu, ayog'i yalang, Yaqo chokidin ko'ksi dog'i yalang.</p>
5.	<p>Aleksandr darhol uni chaqirishni buryди va unga uzoq tikildi. "Sening tashqi ko'rinishing, – dedi u, – zoting sharaflı ekaniga zid emas, lekin menga qashshoqlingga sabr bilan chidaganing haqida bilish qiziqroq. Keyin Abdalonim javob berdi: "Qirollik hokimiyatiga ham shunday qat'iyat bilan chiday olsam, yaxshi bo'ladi! Men xohishlarimni doim o'z qo'llarim mehnati bilan qondirganman; Hech narsam yo'q, men hech qachon hech narsaga muhtoj emasman".</p>	<p>Jahon shug'li gardiga silkib etak, Tutub iki ilgiga iki so'ngak. Skandar anga ehtirom ayladi, O'z ollinda oliy maqom ayladi. Dedi: "Bu so'ngaklardin afsona ayt, Ne so'rsam, javobin aning yona ayt!" Dedi: "Go'rillardin qilurda guzar, Necha bu so'ngaklarga soldim nazar. Zamirimg'a lekin nihon qoldi bu Ki, shahning qayudur, gadoning qayu? Chu o'lganda birdur bu iki mato', Tiriklikda nevchun qilurlar nizo?"</p>
6.	<p>Aleksandr Abdalonimning bu so'zlari asosida qalbining yuksak fazilatlariga ishonch hosil qildi; Shunday qilib, Aleksandr unga Stratoianing barcha qirollik mulkinigina emas, balki Fors o'lkasining ko'p qismini topshirdi, bundan tashqari, shaharga tutash hududlarni unga bo'ysundirdi.</p>	<p>Kelib bu kalomi Skandarga xush, Dedi: "K-ey zabonovari borkash, Seni toptim asru biyik nuktalik, Agar bor esa himmatning ham biyik. Seni kishvaringda qilay arjumand, Berib shohlig', poyang aylay baland".</p>
7.		<p>Dedi: "Himmat o'lmish manga hamnishast, Sen istardek ermas, vale asru past Ki, tark aylabon faqr sarmoyasin, Pisand etgamen shohlig' poyasin. Emas rub'i maskunga rag'bat manga, Tilar to'rt sarmoya himmat manga: Biri andin o'ldi hayoti abad Ki, yo'qtur aning intihosig'a had. Yana bir: yigitlikki topmay xalal, Qariliq bila bo'lmag'ay ul badal. Yana bir: g'inoyi muabbaddurur Ki, ollinda iflosqa raddurur. Yana: shodlig'kim, yo'q oning g'ami, Adam bo'lg'ay ul surning motami".</p>

8.		<p>Skandarni hayrat zabun aylabon, Dedi, bosh uyotdin nighun aylabon Ki: “Ey farruxoyinu farkundaroy, Bu uqdangdin ul bo‘ldi mushkilkushoy Ki, bu dayr aro topsang ogoqliq, Sanga faqr berdi, manga shohliq. Agarchi meni ayladi arjumand, Sanga berdi himmatni mendin baland”.</p> <p>(Xullas, gado shohlikni qabul qilmaydi va faqr maslagiga sodiq qoladi – I.I.)</p>
----	--	---

Ushbu qiyosiy jadvaldan Navoiy tasvirlagan “Iskandar va gado” hikoyasi birinchi qismining sarchashmasi Ruf yozib qoldirgan tarixiy voqeа ekanligi ko‘rinib turibdi. Har ikki epizodda voqealar rivoji, tarixiy makon va zamon bir xil. Har ikki voqelikni Aleksandr shaxsi birlashtirib turibdi, faqat tarixiy voqelikning adabiyotga transformatsiyasi jarayonida din, dunyoqarash bilan bog‘liq bir qancha omillar o‘z ta’sirini o‘tkazgan va voqeaneing butunlay yangicha, originalidan mutlaqo farqlanuvchi talqinlarini yuzaga keltirgan. Shu bois original voqelik va badiiy transformatsiya o‘rtasida sujet kompozitsiyasiga aloqador zaif bog‘liqlik saqlanib qolgan. Voqeadan ko‘zlangan maqsad, uning talqini va xulosalar jiddiy o‘zgarishga uchragan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Navoiy tasvirlagan hikoyatning Iskandar tomonidan gadoga taxt taklif etilishigacha bo‘lgan qismi Ruf qayd etgan tarixiy voqelik asosida shakllangan, chunki hikoyatning shu o‘rniga qadar tarixiy voqelik va hikoyat o‘rtasida parallelik saqlangan, biroq hikoyatning davomi va yakuni Ruf qayd etgan tarixiy voqelikka mos emas, ya’ni unda uchramaydi. Ushbu qiyosdan shunday xulosa qilish mumkin: Navoiy hikoyasidagi Iskandar, bu – Aleksandr, Navoiy voqeа sodir bo‘lgan joy sifatida tasvirlagan “Mag‘rib zamin”, bu – qadimgi Sidon shahri; Navoiy jangda halok bo‘lgan deb tasvirlagan mamlakat shohi, bu – Stratoia (Rufda u jangda halok bo‘lmaydi, balki doroparast bo‘lgani uchun Aleksandr tomonidan shohlikdan olinadi); hikoyatda Iskandar vafot etgan shohga nisbatan adolat bo‘lishi, uning yurtini begonalar egallamasligi uchun uning avlodidan bo‘lgan shahzodani taxtga chiqarishni xohlaydi – Aleksandr ham Sidonga hukmdorlik qilayotgan Doro vassalini bo‘shatib, u yerga taxtning haqiqiy egalaridan bo‘lgan, sidonliklardan chiqqan podshohzodani tayinlash orqaliadolatni tiklashni istaydi; hikoyatda xalq shohlik xayolini tark qilib, qabristonda yashab yuruvchi shohlar sulolasidan bo‘lgan odam haqida xabar beradi – sidonliklar Aleksandrning istagini bilgach, unga shu yerlik qadimiy sulola vakillaridan bo‘lgan, lekin halolligi tufayli qashshoqlikka uchragan, nochorligidan faqat bir bog‘ni parvarishlab yuruvchi Abdalonim degan shaxs haqida xabar berishadi, ya’ni Navoiy hikoyasida ismi ko‘rsatilmagan gadoning tarixiy prototipi – Abdalonim (Antik davr tarixchilaridan yana biri Yustin “Filipp tarixi” asarida Abdalonim haqida shunday yozadi: “(Aleksandr) keyin Suriyaga borib u yerlarni bo‘ysundirdi, yana bir qancha joylarni egalladi, Sidonga zodagonlar qolib, qurigan quduqlarni tozalash, bog‘larni sug‘orish ishlarida ishlagan, gadodek hayot kechiruvchi Abdalonimni hukmdor qilib tayinlaydi va bu orqali unga berilgan mansab shohning marhamatidan emas, balki

uning nasl-nasabi tufayli ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ldi” [Yustin M.Y., 2005; 99-109].

Navoiy tasvirlagan hikoyaning shu yeriga kelganda tafsilotlar qisman o‘zgarishga uchragan, ammo mantiq aynan saqlanib qolgan, ya’ni Navoiy tasvirlagan hikoyatda gado Iskandar huzuriga bosh suyaklarni ko‘tarib keladi va ularning qay biri shohniki-yu qay biri gadoniki ekanini farqlay olmasligi, ular o‘lgach bir xil bo‘lishi, tiriklikda nizo qilishlarini esa tushuna olmasligini aytadi va Iskandar uning bu hikmatiga qoyil qolib, gadoga shu yurt hukmdorligini taklif etadi – Aleksandr ham Abdalonim uning huzuriga kelgach, unga diqqat bilan razm soladi va tashqi ko‘rinishi podshohzodalarga muvofiqligi, lekin uni halollik va faqirlikka qanday sabr qilishi qiziqtirishini aytadi, Abdalonim ham sabrli va bardoshli bo‘lishga intilishi, barcha istaklarini faqat o‘z mehnati bilan ta‘minlashi, hech narsasi yo‘qligi va hech qachon hech narsaga muhtoj emasligini aytib, Aleksandrni hayron qoldiradi va Aleksandr unga shu yurt hukmdorligini taklif etadi. E’tibor berilsa, har ikki voqeada ham podshoh faqir kishining oqilligiga qoyil qoladi va unga shohlikni taklif etadi, ammo Navoiy hikoyasida gado Iskandarni bosh chanoqlarining hikmatini izohlash bilan qoyil qoldirsa, Rufda qashshoq kishi sabrliligi, ehtiyojsizligi bilan Aleksandrni qoyil qoldiradi. Umuman olganda, mantiq aynan saqlangan, biroq Navoiy hikoyasiga bosh suyaklari bilan bog‘liq motivning qanday kelib qo‘shilganini ham maxsus tekshirish zarur.

(2) Suyak yoki uning qismi bo‘lgan oshiq-moshiq motivi bilan bog‘liq tasvir va tasavvurlar ko‘proq folklorda uchrasa-da, yozma adabiyotda ham ko‘zga tashlanib turadi. Xo‘sish, bosh chanoqlar detal-motivi sharq adabiyotida Navoiyga qadar kimlarning asarlarida uchraydi? “Iskandar va gado” hikoyati xuddi shu shaklda sharq adabiyotida Navoiygacha mavjud edimi? Mana shu ikki savolga javob topilsa, o‘z-o‘zidan, hikoyatdagi bosh chanoqlar detali Navoiy tasvirlariga qayerdan kelib qo‘shilgani yoki bu Navoiyning ixtirosi ekanini ma’lum bo‘ladi.

Navoiyga qadar Sharq adabiyotida shoh-u gado ziddiyati motivi mavjud edi va turli shakllarda uchrab turadi. Lekin bizni hikoyatning aynan Iskandar va bosh chanog‘i ko‘targan gado ziddiyati tasvirlangan versiyalari qiziqtiradi. Masalan, xamsanavislik an’anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarda ushbu hikoya uchramaydi. Shu ma’noda Navoiyning ushbu hikoyatni birinchi marta xamsanavislikka yangi adabiy material sifatida olib kirgani rost, lekin Navoiy ijodida hikoyatlarni tasvirlash bilan bog‘liq asosiy xususiyat shuki, shoir undan aksariyat hollarda o‘zining biror fikrini tasdiqlashda foydalanadi va ularning asosiy qismi Sharqda sayyor xarakter kasb etgan hikoyatlardir. Shu bois ushbu hikoyat Navoiy dostoniga biror manbadan o‘tgan bo‘lishi kerak, degan jiddiy mulohaza bor. Agar hikoyatning mazmunidan kelib chiqilsa, unda shoh va gado qarama-qarshiliqi, bu orqali hukmdorlarga nasihat, eslatma asosiy planda turadi. Shu mantiqqa suyanilsa, bu hikoyat Navoiydan oldin shohlarga nasihat, oyna mazmunida yozilgan “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-muluk” tipidagi asarlarda uchrashi kerak. Podshohlarga nasihat ruhidagi bunday asarlarni yozish esa XI–XII asrlarda urf bo‘lgan va bu adabiyotning eng yaxshi namunalari ayni mana shu davrda yaratilgan.

Masalan, Imom G‘azzoliyning “Nasihat ul-muluk” asari (XII asr) mazkur

adabiyotning mashhur namunalaridan bo‘lib, aynan shu asarda bosh chanoqlar detali motivi qatnashgan hikoyatga duch kelamiz. Unga ko‘ra, Zulqarnayn hukmdori yo‘q, eshigining og‘zida go‘ri kovlangan, faqat o‘t-o‘lanlar bilan oziqlanadigan odamlar yashaydigan joyga borib qoladi, u yerda hukmdorni topa olmagach, odamlar bilan suhbatlashadi, ular bilan savol-javoblar qiladi, gap boylik, tillo-kumush masalasiga kelganda shu yerliklardan biri ikkita bosh suyagini ko‘rsatib, ulardan biri zolimniki, ikkinchisi adolatli hukmdorniki ekani va ularning farqsiz ekaniga ishora qilib, Zulqarnaynning boshini ushlab, bu qaysi biri deb so‘raydi, shunda Zulqarnayn uning donishmandligiga qoyil qolib, unga vazirlik mansabi, katta mol-mulk va’da qiladi, ammo u odam bularni rad etadi [G‘azzoliy, 1317; 37-39]. G‘azzoliy tasvirlagan ushbu hikoyat Nizomiy va Jomiy iskandarnomalarida jiddiy e’tibor qaratilgan utopik jamiyat – fozillar shahri haqidagi qarashlar bilan bog‘liq, unda ikki bosh suyagi motividan Navoiy tasvirlagan hikoyatdan biroz farqli ravishda foydalanilgan bo‘lsada, ulardagи umumiylit, aloqadorlikni sezish qiyin emas. G‘azzoliy keltirgan ushbu hikoyat shuni tasdiqlaydiki, Navoiyga qadar Sharqda yaratilgan axloqiy-didaktik, siyosiy, pandnoma tipidagi asarlardagi Iskandar Zulqarnayn bilan bog‘liq rivoyat va afsonalarda ikki bosh chanoq detali va uni ko‘targan shaxs obrazı mavjud bo‘lgan.

Navoiyshunos Y.E. Bertelsning qayd etishicha, Abubakr Muhammad Turtushiyning “Siroj ul-muluk” asarida ham “Iskandar va gado” hikoyati mavjud [Bertels Y.E., 1965; 307]. Hikoyatning Turtushiy va Navoiy tasvirlagan versiyalar kompozitsiyasi, tafsilotlari juda o‘xshash. Dastlabki jiddiy farq Navoiy voqealarni nazmda tasvirlaganida ko‘rinadi. Keyingi farq shuki, Turtushiy versiyasida Iskandar qabrlarda yashovchi podshohni uchratib qoladi, lekin uni qidirmaydi. Iskandar bilan suhbatda u ota-bobalari shu qabristonga ko‘milgani, ularning suyaklarini qullarning suyaklaridan farqlash uchun bu yerga ko‘chib kelgani, lekin suyaklar bir xil bo‘lgani bois maqsadiga erisha olmaganini aytadi. Yana bir farq shuki, Turtushiy versiyasida suyaklar motivi bo‘lsa ham, aynan ikki bosh chanoq detali yo‘q. Hikoyatning keyingi qismi Navoiy tasvirlagan variant bilan bir xil davom etadi: uning donishmandligini ko‘rgan Iskandar hukmdorlik taklif etadi, qabristonda yashovchi shoh to‘rtta istagini bajo keltirish sharti bilan qabul qilishini aytadi, istaklar ham Navoiy qayd etgan istaklar bilan bir xil. Turtushiy versiyasining yakuni ham Navoiynikidan qisman farq qiladi, ya’ni Iskandar qabristonda yashovchi shohning xohishlarini bajara olmasligini aytgach, u “kim bajara olsa, shundan so‘rayman” deb ketadi. Navoiy versiyasida gado bunday fikr aytmaydi, aksincha, hikoyat so‘ngida Iskandar gadoning himmati o‘zinikidan balandligi, lekin ikkalasining bu holati taqdir tufayli ekanini aytadi. Garchi Navoiy gado taxtni qabul qilgan-qilmagani haqida aniq yozmasa ham, hikoyat kontekstidan taxtni qabul qilmagani sezilib turadi.

Ta’kidlash kerakki, Turtushiy va Navoiy versiyalari o‘rtasidagi asosiy va jiddiy farq mazmun va talqinda bo‘lib, Turtushiy versiyasida asosiy e’tibor qabristonda yashovchi shoh va uning donishmandligini ko‘rsatishga qaratilgan, hatto Iskandar bilan uchrashuvi ham tasodify xarakterga ega. Navoiyda esa asosiy e’tibor Iskandar shaxsini kashf etish, uning himmati darajasini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, gado ana shu maqsadni aniqlashtirishda mezon vazifasini bajargan. Navoiy versiyasidagi

eng katta yangilik esa shoh va gado ziddiyati tasviri hamda uning zimnida himmat va faqr maslagiga oid so‘fiyona qarashlarning ifodalanganidir. Turtushiy versiyasida shoh va gado ziddiyati emas, balki shoh va dono shoh ziddiyati mavjud bo‘lib, unda himmat va faqr masalasiga oid qarashlar aks etmagan. To‘g‘ri, Navoiy versiyasida ham qabristonda yashovchi gado avval shahzoda bo‘lgani aytildi, ammo Navoiy uni “gadolig” ixtiyor etgan podsho, balki filhaqiqat podshohiqqa yetgan gado” deb ataydi, ya’ni Navoiy uni gadolikni ixtiyoriy ravishda shohlikdan afzal bilgan podshohzoda deb ta‘riflaydi, u Turtushi qahramonidek qabristonga biror maqsadda ko‘chib kelmagan. Boshqa o‘rinda esa faqrni tark etishi uchun himmati to‘rt narsani istashi haqida aytadi, demak, Navoiy tasvirlagan shaxs faqrni maslak qilgan ma‘rifat gadosi. Navoiy Iskandar va gado ziddiyati vositasida tasavvufdagi himmat va faqr masalalariga oid fikrlarini ifodalashi bilan salaflaridan jiddiy farqlanib turadi. Na G‘azzoliy versiyasida, na Turtushiy versiyasida bunday talqinlarni uchratmaymiz. G‘azzoliy hikoyati ko‘proq fazil odamlar jamiyati g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, Turtushiy hikoyati donishmandlik, dono hukmdor masalalari bilan bog‘liq. Navoiy hikoyatida esa G‘azzoliy va Turtushiy versiyalari qorishgandek tuyuladi, chunki G‘azzoliy versiyasidagi faqirona hayot kechiruvchi shaxslar jamoasi, ularning o‘zлari uchun qazilgan qabrlar va ikki bosh chanoq obrazlari, Turtushiy versiyasidagi qabristonga ajodolarining suyaklarini ajratish maqsadida ko‘chib borgan podshohzoda, suyaklarni farqlay olmaslik va to‘rt shart masalalari – Navoiy tasvirlagan hikoyat bilan bevosita aloqador. Xullas, Navoiy versiyasidagi ikki bosh chanoq motivi XI–XII asrlardayoq Sharq ijodkorlari asarlarida ishlatilgan, Navoiy tasvirlagan hikoyat ko‘proq Turtushiy qayd etgan versiya asosida shakllangan, ammo ikki bosh chanoq detali bu siraga G‘azzoliy versiyasidan o‘tgan bo‘lishi kerak. Demak, ikki bosh chanoq motivi va Navoiy tasvirlagan hikoyat kompozitsiyasi Navoiyga qadar Sharq adabiyotida shakllanib ulgurgan edi. Navoiyning ushbu hikoyat bobidagi asosiy yangiligi yuqoridagi ikki versiyani birlashtirganida ham emas, balki mavzuga shoh va gado ziddiyati, himmat va faqr kabi tasavvufiy masalalarni olib kirish orqali hikoyatda tasvirlangan bosh masalani konkretlashtirgani va hikoyatning so‘fiyona talqinini yaratganida ko‘rinadi.

Ushbu fikrlar Navoiy tasvirlagan hikoyatning birinchi qismi va undagi ikki bosh chanoq motivi bilan bog‘liq holda qayd etildi va tahlillar yuqorida qo‘yilgan har ikki savolga javob topdi: 1. “Iskandar va gado” hikoyati xuddi shu shaklda Sharq adabiyotida Navoiyga qadar Turtushiy asarida bo‘lgan, lekin unda aynan ikki bosh chanoq detali emas, umuman, suyaklar detali mavjud edi. 2. Bosh chanoqlar detali motivi Navoiyga qadar Sharq manbalaridan G‘azzoliyning “Nasihat ul-muluk” asarida uchraydi (ehtimol, biz bilmagan boshqa manbalarda ham bo‘lgan). Hikoyat Navoiy dostoniga Sharq yoki G‘arb manbasidan (Sharqdagi tarjimasi orqali) o‘tgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Mubashshir ibn Fotikning yunon faylasuflari hayoti va hikmatlari tarjimasi jamlangan “Muxtor ul-hikam” asarida ham ushbu hikoya uchraydi. Chunki mazkur obraz va hikoyat Navoiyga qadar sayyor xarakter kasb etib ulgurgan, shubhasiz, bu hikoyatning asoslari G‘azzoliy va Turtushiy tomonidan yaratilgan emas, ularga ham avvalgi manbalardan ko‘chib o‘tgan. Shu bois ushbu sujetning tarixiy asoslarini tekshirish mustahkam ilmiy xulosalarga zamin yaratadi.

Bizningcha, garchi hikoyat Navoiyga qadar yaratilgan Sharqdagi hikmat adabiyotida uchrasa ham, Navoiy tasvirlagan hikoyatning birinchi qismi kabi ikkinchi qismi ham genezisiga ko‘ra antik davrda yaratilgan manabalar, aniqrog‘i, Aleksandr faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarga borib taqaladi. Navoiy tasvirlagan hikoyatning ikkinchi bo‘lagi va uning ichki qismlari ham qiziqarli genezisiga ega.

Hikoyat voqealarining keyingi rivoji jiddiy farq qilishiga qaraganda, Navoiy tasvirlagan hikoyatning keyingi qismlari boshqa tarixiy asoslardan kelib chiqqan. Chunki Rufda voqe Aleksandr tomonidan Abdalonimga u yashagan mamlakat hukmdorligining taklif etilishi, unga yangi hududlar ham qo‘shib berilgani haqidagi xabar bilan yakunlanadi. Xullas, Ruf qayd etgan voqeanning so‘ngida Abdalonim taxtni qabul qiladi va voqe shu yerda o‘z nihoyasiga yetadi. Navoiy hikoyatida esa sujet rivojlantirilgan, ya‘ni voqealar davom etadi.

Hikoyatning ikkinchi qismi (II) genezisi. Navoiy tasvirlagan hikoyatning ikkinchi qismi yana ikkita ichki qismlarga ajraladi: 1. Iskandardan gadoning to‘rt o‘z istagi (abadiy hayot, qariligi yo‘q yigitlik, tunganmas boylik, g‘ami yo‘q shodlik)ni bajo keltirishni so‘rashi epizodi. 2. Iskandarning gado himmat bobida o‘zidan ustun ekanini tan olishi, uyalishi va u ham taqdir izmida ekanini aytib, o‘zini oqlashi, oxir-oqibat gadoning shohlikni qabul qilmasligi epizodi. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Navoiy tasvirlagan hikoyatning mazkur qismlari zamirida Aleksandr Makedonskiyning Hindistonda brahmanlar – gimnosofistlar bilan tarixiy uchrashuvi, suhbatlari yotadi. Ushbu tarixiy epizodlar shu qadar ommalashganki, uning ta’sirini tarix, din, axloq va adabiyotda ham uchratish mumkin.

Mazkur voqe tarixiy asoslarga ega bo‘lib, antik davr tarixchilaridan Megasfen brahmanlarning turmush tarzi, axloqi va qarashlari haqida yozar ekan [Schwanbeck, McCrindle J.W., 1877; 97-105], Aleksandr brahmanlarning ulug‘i bo‘lgan Mandanis (Arrianda Dandamiy)ni huzuriga chorlaydi, kelsa, tuhfalar berishi, yo‘qsa, jazolashini va‘da qiladi, lekin Mandanis bormaydi, chunki Mandanis Aleksandrni Zevsning o‘g‘li deb hisoblamas va nafsi hech nima bilan qondira olmaydigan odamning birorta sovg‘asini xohlamas edi. U aytadiki, agar tirik bo‘lsa, hind yerlaridagi mevalar unga kifoya, agar o‘ldirilsa, og‘ir hamrohi, qarigan tanasidan ozod bo‘ladi va yangi hayotga erishadi. Aleksandr hind donishmandining bu fikrlariga qoyil qolib, uni jazolashdan voz kechadi [Schwanbeck, McCrindle J.W., 1877; 106-107]. Aleksandr va brahmanlar o‘rtasidagi bu muloqotni Arrian ham xuddi shunday tasvirlagan [Arrian F., 1962; 213]. Lekin Megasfen va Arrian Aleksandrning brahmanlarga bergen o‘nta savolini qayd etgan emas. Biz mazkur savol-javob epizodini qadimgi tarixiy manbalardan bo‘lgan Plutarxning “Aleksandr” asarida uchratamiz [Plutarx, 2006; 80-81]. Plutarx qayd etgan Aleksandr va brahmanlar savol-javobi aks etgan epizod keyinchalik “Aleksandr va Negev oqsoqollari (donishmandlari)” tarzida Talmud adabiyotida ommalashgan va ayrim o‘zgartirishlar bilan mafkuraviy qayta ishlangan [Steinsaltz A.E., 2019; 453-454]. Antik tarixdagi Aleksandr va brahmanlar savol-javobi lavhasi tarixiy manbalardan Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasiga ham ko‘chib o‘tdi va qayta ishlandi. Psevdo-Kallisfendagi qayta ishlash, asosan, epizodning so‘ngida sodir bo‘lgan, ya‘ni faylasuflar o‘nta savolga javob bergach, Aleksandr ularga

minnatdorchilik ifodasi sifatida “xohlagan narsangizni so‘rang, men sizga beraman” deydi. Mana shu nuqtadan keyingi suhbat tarixiy manbalarda uchramaydi. Megasfen, Arrian, Plutarx va Talmudda voqeas Aleksandrning yo brahman fikrlaridan, yo brahmanlarning savollarga javobidan hayratlanishi va ularga sovg‘alar berib, ozod qilishi bilan tugaydi. Bunday yakun Aleksandr va brahmanlar uchrashuvi tasvirlangan turli versiyalar o‘rtasidagi umumiylik, o‘zaro uyg‘unlikni ham ko‘rsatadi. Biroq ularda aynan Psevdo-Kallisfenda qayd etilgan yakunni ko‘rmaymiz. Uning talqinida voqeas so‘ngida insoniy ojizlik, buyuklikka da’vogar shohning oddiy odam tomonidan mot qilinishi, o‘lim va abadiylik motivlarini konkret ifodalashga urunish ko‘rinadi. Ayni holat, Navoiy tasvirlagan hikoyatning ikkinchi qismiga Aleksandr va brahmanlar suhbatining Psevdo-Kallisfenda qayd etilgan versiyasi transformatsiya bo‘lgan, degan qarashimizni tasdiqlaydi. Qayd etish kerakki, Psevdo-Kallisfenning aynan suryoniy versiyasi Sharqda yaratilgan Iskandar haqidagi qissalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Psevdo-Kallisfenda Aleksandr Porusni yengganidan so‘ng Ratniron degan joyda g‘orlarda istiqomat qiluvchi yalong‘och donishmandlar – brahmanlar (*gimnosofistlar* - (*yunoncha*, “*yalang‘och faylasuflar*”) – *ma’naviy takomil yo ‘lida badanni xalaqit beradigan keraksiz tashvish sifatida ko‘rvuchi, kiyimga e’tiborsiz hind asket-faylasuflarining yunoncha nomi*) ga qarshi jang qilish uchun borgan epizodi mavjud [The history of Alexander..., 1889; 92-93]. Mazkur epizod keying davr iskandarnomalari uchun ko‘p jihatdan ahamiyatli bo‘lib, u Sharqdagi turli manbalarda ko‘plab o‘zgarishlarga uchragan va keng tasvirlangan. Psevdo-Kallisfenda tasvirlangan Aleksandr va brahmanlar uchrashuvi voqeasi Talmudda Aleksandr bilan bog‘liq holda uchrovchi “Aleksandr va janub oqsoqollari” sujeti o‘zaro o‘xhash bo‘lib, ular genezisiga ko‘ra bir manbaga aloqador. Ularda ayrim tafsilotlar farqli, masalan, Aleksandr tomonidan berilgan o‘nta savol va ularning javoblarida tafovutlar bor, biroq savollar mavzusi, yo‘nalishi o‘zgargan emas, shuningdek, voqeanning fabulasi ham deyarli takrorlangan. Sharqda yaratilgan Iskandar qissalarining asosiyalarida, masalan, Firdavsiy dostonida epizod bat afsil tasvirlangan [Firdavsiy, 1989; 95-101]. Navoiy esa “Saddi Iskandariy”da “Aleksandr va brahmanlar” epizodini shu nom ostida tasvirlagan emas, ammo Aleksandr tarixi bilan bog‘liq ushbu muhim voqelik Navoiy dostonidan chetda qolishi ham mumkin emas edi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy asoslarga ega, Talmud adabiyotida transformatsiyaga uchragan, Psevdo-Kallisfen an’anasida bat afsil tasvirlangan va sharqdagi Iskandar qissalarining asosiy versiyalarida qayta ishlangan “Aleksandr va brahmanlar” voqeasi Navoiy dostoniga ikki ko‘rinishda ta’sir ko‘rsatgan:

1. Navoiy “Saddi Iskandariy”da o‘z fikrlarini to‘rt yo‘nalish: **sarguzasht, mulohaza, hikoyat, hikmat (savol-javoblar)**da ifodalagan. To‘rt yo‘nalishning oxirgisi bo‘lgan hikmatlarda faqat falsafiy savol-javoblar bayon qilingan, ammo Navoiy asosiy voqealar tasvirlangan “Sarguzasht” qismida Iskandar va donishmandlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan biror falsafiy muhokama – savol-javob haqida yozmaydi. Biroq G‘arbda ham, Sharqda ham Iskandar mavzusining ajralmas qismiga aylangan va juda keng ommalashgan falsafiy savol-javob detali yoki ushbu motivning Navoiy tomonidan tasvirlanmay qolishi yoki undan bexabar bo‘lishini tasavvur etish qiyin. Bizningcha,

Navoiy ushbu epizodlardan yaxshi xabardor bo‘lgan va xamsanavis salaflaridan farqli ravishda ularni alohida yo‘nalish – falsafiy muhokama – hikmatlar tarzida tasvirlashga qaror qilgan va Iskandar mavzusiga aloqador barcha falsafiy savol-javoblar ushbu yo‘nalishga singdirib yuborilgan. Boshqa tomondan, bunday savol-javoblar Navoiyga o‘z dostonida ularni alohida tasvirlashga turtki bergen bo‘lishi kerak. Navoiy dosotonida Iskandarning savollariga, asosan, Arastu tomonidan javob berilishi ham u qadar mantiqsiz emas. Masalan, tarixan Aristotel Aleksandrning ustozি, maslahatgo‘yi bo‘lgan va Sharqda ham bundan yaxshi xabardor bo‘lishgan. Shuningdek, sharq muarrixlari, adiblari Aleksandr tomonidan berilgan savollarga Arastu bergen javoblar to‘plangan risola mavjud bo‘lgani haqida yozishadi. Jumladan, Beruniy “Hindiston” asarida Arastuning brahmanlar bergen savollarga qaytargan javoblari to‘plangan risola mavjudligi, undagi savollarni Iskandar Arastuga yuborganini aytadi. Beruniy ana o‘sha risoladan bir necha iqtibos ham keltiradi [Abu Rayhon Beruniy, 1965; 105, 184]. Bundan tashqari, 900 dan ortiq turli fanlarga oid savollarga berilgan javoblar to‘plangan (savol-javob tarzida tuzilgan) “Problems” nomli Aristotelga nisbat beriluvchi asar mavjud. Ushbu asar ham savol va javoblardan iborat. Bizningcha, Aleksandr va Arastuga oid bunday hodisalar, qolaversa, Navoiyning ijodiy maqsadi tufayli “Saddi Iskandariy”da alohida yo‘nalish – falsafiy savol-javoblar linyasi paydo bo‘lgan.

2. Aynan “Aleksandr va brahmanlar” voqeasining Psevdo-Kallisfenda uchrovchi versiyasi “Saddi Iskandariy”dagi “Shoh va gado” hikoyasiga transformatsiya bo‘lgan. Psevdo-Kallisfenda bayon qilingan Aleksandr va brahmanlar uchrashuvi voqeasiga oid asosiy tafsilotlar quyidagicha:

“Aleksandr brahmanlar istiqomat qiladigan joyga kelib, ularning tog‘ kovaklarida, ayollari va bolalari esa tekislikda yashashini ko‘radi. Ular orasida shunday savol-javob bo‘lib o‘tadi:

– Bu yerda qabrlaringiz yo‘qmi?

– Biz yashaydigan joy bizning uyimiz va qabrimiz hamdir; shu yerda yotamiz va tanamizni doim unga dafn etamiz, shunda mashg‘ulotlar-u ta‘limimiz bu dunyoda, hayotimiz davomiyligi u dunyoda abadiy bo‘lishi mumkin.

– Qaysi erkaklar ko‘proq, o‘ligimi yo tirigi?

– O‘lganlarning soni ko‘proq, chunki endi tug‘iladiganlar hozirda tirik bo‘lganlar qatoriga kirmaydi; o‘zingiz bilasizki, siz tufayli o‘lganlar behisob va siz bilan qolgani bir necha legion.

– O‘lim yoki hayotdan qay biri kuchliroq?

– Hayot, chunki quyosh ko‘tarilib, hayot kabi qiziganda tunning zaifligini o‘z nurlari bilan qoplaydi va kuchga to‘ladi. Shunday qilib, o‘liklar ham o‘lim zulmatining tubiga tushishadi, ammo hayot ularning ustida quyosh kabi ko‘tarilgach, ular qayta tiriladilar.

– Yer yoki dengizdan qay biri qadimiy?

– Yer, chunki dengiz ham yer yuzida joylashgan.

– Tirik mavjudotlarning eng yovuzi qaysi?

– Inson.

- Aytingchi, qanday qilib?
- Siz bilan qancha jonzot borayotganligini o‘zingizdan so‘rang, boshqa jonzotlarning yerlari-yu mamlakatlarini, boshqa jonzotlarni o‘z egalaridan tortib olib, o‘zlarini yolg‘iz tutdingiz.

Iskandar bu gapdan g‘azablanmadı, chunki u tinglashni xohlardi.

- Shohlik nima?
- Ochko‘zlik va qisqa muddatli qudrat, takabburlik va yovuz ishlar qo‘polligi.
- Kecha-yu kunduzdan qay biri avval mavjud edi?
- Kecha, chunki bola avvalo onasining qornida – zulmatda yaratiladi, keyin tug‘ilganda yorug‘likni ko‘radi.
- Biz kimni yolg‘on bilan alday olmaymiz?
- Unga hamma sirlar oshkor bo‘lganni.
- Qaysi oyoq-qo‘l yaxshiroq, chap yoki o‘ng tomondagisi?
- Chap tarafdagilar, chunki quyosh chap tomonda porlaydi; ayol dastlab bolasini chap ko‘krakdan emizadi; Xudoga qurbanlik keltirganda chap qo‘l bilan qurbanlik keltiramiz; shohlar esa o‘zlarining shohlik hassasini chap qo‘llarida tutadilar.

Aleksandr ushbu savollarni berib bo‘lgach, ularga dedi: “Nimani xohlasangiz, darhol so‘rang, men sizga beraman”.

Brahmanlar: “Biz sendan o‘limsizlik (abadiylik)ni so‘raymiz”, dedilar.

Aleksandr: “Men o‘limsizlik ustidan hukmron emasman, chunki o‘zim o‘luvchiman”.

Brahmanlar: “Modomiki o‘lar ekansiz, bu urushlar va janglarni nima uchun qil_yapsiz? Butun dunyoni egallab olganingizda uni qayerga ham olib berardingiz? Siz o‘luvchi bo‘lganiningiz uchun baribir boshqalarda qoladiku?!”, dedilar.

Aleksandr shunday dedi: “Bularning bari taqdir tufayli va falakning irodasi bilan sodir bo‘ladi, biz samoviy buyruqni bajaramiz, chunki dengiz to‘lqinlari shamol esmasa ko‘tarilmaganidek yoki shamolsiz daraxtlar tebranmagani kabi odamlar ham yuqorida beriladigan buyruqsiz hech narsa qila olmaydilar. Men ham urushlardan tin olishni juda xohlayman... agar hamma bir xil fikrlasa va bir xil bo‘lsa, butun dunyo sahro va ishlovsiz bo‘lar edi; hech kim dengizda kemalarda suzib yurmasdi, yerga ishlov bermasdi va bolalar nasli bo‘lmasdi. Men olib borgan bu urushlarga aralashgan, mol-mulki yo‘q bo‘lib ketgan va omadsiz odamlar qancha?! Boshqa tomondan, u yerda boshqalarning mol-mulki bilan boyib ketgan juda baxtli erkaklar qancha! Har birimiz biror narsani talon-taroj qilsak, uni yana birovga qoldiramiz hamda yalang‘och va hech vaqosiz ketamiz” [The history of Alexander..., 1889; 92-94].

Psevdo-Kallisfenda qayd etilgan “Aleksandr va brahmanlar” voqeasining asosiy tafsilotlari mana shulardan iborat. Diqqat qilinsa, Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasida qayd etilgan ushbu voqeа Navoiy tasvirlagan “Iskandar va gado” hikoyati bilan asos parallelarga ega ekanini payqash mumkin. Bu holatni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- 1) shoh donishmand(lar) bilan uchrashadi;
- 2) shoh va donishmand(lar) o‘rtasida savol-javob bo‘lib o‘tadi;
- 3) donishmand oqilligi bilan shohni hayratda qoldiradi;

- 4) shoh unga nimadir taklif etadi yoki undan istagini so‘raydi;
- 5) donishmand u bajara olmaydigan istakni (shart sifatida) aytadi;
- 6) shoh bajara olmasligini bildiradi;
- 7) donishmand bu uchun shohni malomat qiladi;
- 8) shoh o‘z ojizligi, hukmdorligini taqdir vositasida oqlaydi.

Mana shu sakkiz asos Psevdo-Kallisfendagi epizod va Navoiy tasvirlagan hikoyatda takrorlanadi va bu holat ularning genetik aloqadorligini tasdiqlaydi. Ayni holat Psevdo-Kallisfendagi ushbu epizodning sharqdagi Iskandar qissalari, jumladan, “Saddi Iskandariy”ga bevosita yoki bilvosita transformatsiyasi haqida so‘z yuritish mumkinligini anglatadi. Ta’kidlash kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan sakkiz umumiylaslardan dastlabki to‘rttasi “Iskandar va gado” hikoyatining dastlabki qismiga, qolgan to‘hntasi hikoyatning ikkinchi qismiga taalluqli. “Aleksandr va brahmanlar suhbati”, bizningcha, “Iskandar va gado” hikoyatining ko‘proq ikkinchi qismiga asos bo‘lgan bo‘lsa-da, epizod hikoyatning birinchi qismi bilan ham parallelarga ega ekanini sezish mumkin.

Masalan, (1) Psevdo-Kallisfenda Aleksandr, Navoiyda Iskandar shoh obrazida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu – ushbu epizodlarni ajratib bo‘lmash darajada birlashtirib turadi. Aleksandr brahmanlarga qarshi jang qilish va ularning g‘aroyib fikrlaridan bahramand bo‘lish uchun, Iskandar esa qaysi yurtni bo‘ysundirsa, u yerga o‘sha yerlik hukmdorni tayinlash odati tufayli donishmand(lar) bilan uchrashadi. Donishmand(lar) obrazida Psevdo-Kallisfenda brahmanlar, Navoiyda shohlikdan voz kechgan faqir tasvirlangan. Kallisfenda brahmanlar kiyimsiz, tog‘dagi kovaklarda yashaydi, ularning qabri ham o‘sha yer, ya’ni bir umr o‘z qabrlarida hayot kechiradi, dunyo lazzatlaridan butunlay voz kechgan va muttasil ma‘naviy kamolotga intiladi. Navoiy ham faqirni “yalang”, qabristonda yashab, odamlarga aralashmaydigan, dunyo shug‘lidan etak silkigan, shohlikdan voz kechib, hamisha tafakkur qiluvchi va jonni o‘rtovchi nasihatlari bilan dunyoga bo‘lgan rag‘batini so‘ndiruvchi shaxs sifatida ta’riflaydi.

(2) Psevdo-Kallisfenda Aleksandr va brahmanlar o‘rtasida yuqoridagi o‘nta savol-javob bo‘lib o‘tadi, ularning mavzulari turlicha, asosan, borliqni tushunish bilan aloqador va faylasuflarning javoblari Aleksandrni lol qiladi. Navoiyda bitta savol-javob bo‘lib o‘tadi, unda Iskandar nima uchun gadoning ikkita bosh suyagini ko‘tarib olgani haqida so‘raydi va gadoning javobidan hayratda qoladi. Savol-javob insonning mohiyati, dunyodagi missiyasining mazmuni borasida bo‘lib, shoir bu boradigi qarashlarini “shoh” va “gado” timsollari vositasida bayon qiladi. Psevdo-Kallisfendagi “falsafiy savol-javoblar” Navoiyga kelib “irfoniy savol-javob”ga o‘zgargan. Shuningdek, moddiy olam haqidagi savol-javoblar ilohiyot, haqiqat haqidagi savol-javob bilan almashgan va saviya bir necha marta ortgan. Ayni paytda, har ikki talqin mualliflarning dunyoqarashini ko‘rsatib bergen.

(3) Psevdo-Kallisfenda Aleksandr brahmanlar bergen javoblardan “hayratda qol”masa ham, har holda barcha savollariga qoniqarli javoblar oladi, hatto brahmanlarning Aleksandrni malomat qilib bergen javoblariga ham g‘azablanmaydi. Navoiyda esa gadoning ikki bosh chanoqning qay biri gadoniki-yu qay biri shohniki ekanini yillar davomida ajrata olmasligi, binobarin, o‘lganda barobar bo‘luvchi

insonlarning tiriklikda ziddiyatga borishi, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi haqidagi mulohazalari Iskandarni hayratda qoldiradi. Ya’ni Navoiyga kelib shohning donishmanddan hayratlanishi konkret tus olgan. Aslida, Aleksandrning brahmanlardan hayratlanishi qadimgi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan.

(4) Psevdo-Kallisfendagi talqinda Aleksandr savollariga javob olgach, undan (hukmdorligi bois) xohlagan narsalarini so‘rashlari va u bajo keltirishini aytadi. Navoiyda esa Iskandar gadoning oqilligiga qoyil qolgach, uning podshozodaligini hisobga olib unga shu yurt taxtini taklif etadi. Navoiyda taklif uchun aniq asos ko‘rsatilgan. Shuningdek, Kallisfendagi “xohlagan narsani so‘rash” detali Navoiyda aniq taklif (taxtga o‘tirish)ga o‘zgargan. Navoiy tasvirlagan epizod badiiy mantiqning izchilligi bilan ajralib turadi, bu esa muallif uslubining o‘ziga xos yutug‘iga ishora qiladi.

(5) Psevdo-Kallisfenda brahmanlar Aleksandrdan faqat o‘limsizlik (abadiylik) ni so‘raydilar. Navoiyda esa gado Iskandarga to‘rt narsa: abadiy hayot, qariligi yo‘q yigitlik, tunganmas boylik va g‘ami yo‘q shodlik xohlashini aytadi. Ko‘rinib turibdiki, Kallisfendagi “abadiy hayot” haqidagi istak Navoiyda ham aynan saqlanib qolgan, faqat u yanada rivojlantirilgan va uning yoniga yana shunday mazmundagi uchta yangi istak qo‘shilgan.

Shu o‘rinda mazkur “yangi uch istak” Navoiy tasvirlagan hikoyatga qayerdan qo‘shilgan va bular sharqlik ijodkorlarning ixtiolarimi? – degan savollar paydo bo‘lishi tabiiy. Bizningcha, Aleksandr va brahmanlar uchrashuvida brahmanlar tomonidan aytilgan bitta istakning keyinchalik to‘rtta istakka aylanishi ham o‘ziga xos genezisga ega. Kuzatishimizcha, “Saddi Iskandariy”dagi ushbu hikoyat keyinchalik Sharqda hikmat adabiyoti va pandnomalar ta’sirida jiddiy transformatsiyaga uchragan. Navoiy tasvirlagan hikoyatdagi gadoning to‘rt istagi hikmat adabiyotining mashhur namunasi bo‘lgan “Muxtor ul-hikam”da Arastuning falsafiy o‘gitlari sifatida qayd etilgan: tunganmas boylik, so‘ngsiz hayot, zavol bilmas hukmronlik va o‘zgarmas abadiyat talab et [Fotik, 2013; 364]. Bizningcha, keyinchalik mana shunday to‘rt istak va bosh chanog‘iga doir fikrlar qo‘shilib, “Saddi Iskandariy”dagi hikoyat yuzaga kelgan. E’tiborliisi, Navoiy nisbatan qadimiyoq bo‘lgan to‘rt shartga asoslangan hikoyatni tanlab olgan, faqat Mubasshir ibn Fotikning “Muxtor ul-hikam”idagi to‘rt shartdan biri bo‘lgan “zavol bilmas hukmronlik” Navoiyda “g‘ami yo‘q shodlik” bilan almashgan. Hatto, hikoyatdagi to‘rt istak masalasini qayta ishlash jarayoni Navoiy zamonida ham davom etgan. Masalan, “Ravzat us-safo”da xuddi shu sujet bor, ammo bunda Iskandarga oltita shart qo‘yiladi [Mirxon, 1338; 663]. Mirxondda Navoiydagи to‘rt shartga “mahbubi bemakruh” va “buzilmas sihat” haqidagi yangi ikkita shart ham qo‘shilgan. Shu tariqa, aslida, ixcham shakl va mazmunga ega bo‘lgan sujet davrlar o‘tishi bilan ham shaklan, ham mazmunan transformatsiyaga uchrab yashab qolaverган.

(6) Psevdo-Kallisfenda Aleksandr brahmanlarning istagini eshitib, “Men o‘limsizlik ustidan hukmron emasman, chunki o‘zim o‘luvchiman” deb javob beradi va bu bilan o‘zining hamma narsaga hukmron emasligi, uning ham hukmi o‘tmaydigan va qo‘lidan kelmaydigan ishlar borligini tan oladi. Navoiy esa Iskandarning holatini

shunday ifodalaydi:

Skandarni hayrat zabun aylabon,
Dedi, bosh uyotdin nigun aylabon.

Mazkur baytdagi “zabun aylabon”, “hayrat”, “uyotdin” va “bosh nigun aylabon” kabi so‘z va birikmalar Iskandarning ham o‘z ojizligini, gadodek oddiy (o‘luvchi) odam ekanligini tan olganini bildiradi.

(7) Psevdo-Kallisfenda Aleksandr brahmanlarga ularning istaklarini bajara olmasligini aytgach, brahmanlar “Modomiki o‘lar ekansiz, bu urushlar va janglarni nima uchun? Butun dunyoni egallab olganingizda uni qayerga ham olib boradingiz? Siz o‘luvchi bo‘lganingiz uchun baribir boshqalarda qoladiku?!” deb malomat qilishadi. Navoiy dosotonida aynan Psevdo-Kallisfendagi kabi malomatlar bayon qilinmaydi, ammo “istaganingni beraman” degan va o‘ziga juda katta baho bergan hukmdorga uning ham oddiy odam ekanligini, hatto himmat bobida gadodan ham pastligini eslatib qo‘yish voqealar mantig‘iga yuklatilgan. Umuman, har ikki asarda har narsaga qodirlilikni da’vo qiluvchi hukmdorning naqadar ojizligini eslatib qo‘yish uchun ham “ilojsiz” bo‘lgan narsalar so‘raladi va shu orqali unga oddiy odam ekanligi eslatib qo‘yiladi.

(8) Malomatga uchragan shohning o‘zini oqlashi ham har ikki asarda bir xil kelgan. Psevdo-Kallisfenda Aleksandr brahmanlarga javoban shunday dedi: “Bularning bari taqdir tufayli va falakning irodasi bilan sodir bo‘ladi, biz samoviy buyruqni kutamiz, chunki dengiz to‘lqinlari shamol esmasa ko‘tarilmaganidek yoki shamolsiz daraxtlar tebranmagani kabi odamlar ham yuqoridan beriladigan buyruqsiz hech narsa qila olmaydilar. Men ham urushlardan tin olishni juda xohlayman... agar hamma bir xil fikrlasa va bir xil bo‘lsa, butun dunyo sahro va ishlovsiz bo‘lar edi; hech kim dengizda kemalarda suzib yurmasdi, yerga ishlov bermasdi va bolalar nasli bo‘lmasdi. Men olib borgan bu urushlarga aralashgan, mol-mulk yo‘q bo‘lib ketgan va omadsiz odamlar qancha?! Boshqa tomonidan, u yerda boshqalarning mol-mulki bilan boyib ketgan juda baxtli erkaklar qancha! Har birimiz biror narsani talon-taroj qilsak, uni yana birovga qoldiramiz hamda yalang‘och va hech vaqosiz ketamiz [The History of Alexander..., 1889; 92-94]. Navoiy esa bu borada shunday yozadi:

Skandarni hayrat zabun aylabon,
Dedi, bosh uyotdin nigun aylabon
Ki: “Ey farruxoyinu farxundaroy,
Bu uqdangdin ul bo‘ldi mushkilkushoy
Ki, bu dayr aro topsang ogohlil,
Sanga faqr berdi, manga shohliq.
Agarchi meni ayladi arjumand,
Sanga berdi himmatni mendin baland”.

Navoiyda ham Iskandar o‘zining ishlarini taqdir tufayli deb izohlaydi va gado himmat bobida o‘zidan ulug‘ligini tan oladi, bu ham taqdir tufayli ekanini aytadi. Va senga himmat, menga shohlik berdi deyish orqali Alloh odamlarni bir xil emas, har xil qilib yaratganiga ishora qiladi. Biroq Kallisfendan farqli ravishda Navoiy himmat, faqr, shoh va gado tushunchalariga jiddiy e’tibor beradi hamda gado va shoh

ziddiyati orqali himmat tushunchasining mohiyatini yoritishga, faqr maslagining yuksak ma’naviy maqom ekanini tushuntirishga intiladi. Ushbu intilish, bizningcha, Navoiyning shaxsiy – ijodiy tashabbusi bo‘lib, Navoiyning “Iskandar va gado” hikoyatiga qo‘sghan eng katta yangiligi edi.

XULOSA

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida tasvirlagan “Iskandar va gado” hikoyati ushbu doston va muallif dunyoqarashlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hikoyat orqali Navoiyning shoh va gado munosabati, himmat va faqr kabi masalalarga oid qarashlarini tushunish mumkin. Navoiyning ushbu tasvir-u talqinlari muayyan natija va unga birdaniga erishilmagani aniq. “Iskandar va gado” hikoyati Navoiy tasvirlagan shaklga kelgunga qadar qanday yo‘lni bosib o‘tdi, uning genezisi qayerda, unda qanday mafkuraviy evrilishlar yuz berdi, ushbu hikoyat transformatsiyasi va yangilanishi jarayonida Alisher Navoiyning o‘rnii qanday edi, degan savollarga javob berish zarur. Bizni ko‘proq masalaninig mana shu tomonlari qiziqtiradi.

Navoiy tasvirlagan hikoyat ikki katta qismga, ular ham o‘z navbatida (maqlolaning boshidagi jadvalda ko‘rsatilgan) ikkitadan kichik qismlarga ajraladi, bizningcha, mana shu qismlar va detallarning qo‘shilishidan “Iskandar va gado” hikoyatining Navoiy tasvirlagan varianti hosil bo‘lgan hamda bu qismlarning har biri o‘z genezisiga ega. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu hikoyat va qismlarining aksariyati genezisiga ko‘ra antik davrda Aleksandr Makedonskiy bilan bog‘liq holda yaratilgan asarlarga borib taqaladi. Biroq ularning yaxlit hikoya bo‘lib shakllanishi, Navoiy tasvirlagan kompozitsiyaga kelishi va islom ta’limoti g‘oyalari targ‘ibiga yo‘naltirilishida ko‘proq sharqlik ijodkorlar muhim rol o‘ynagan.

Navoiy tasvirlagan “Iskandar va gado” hikoyati birinchi qismining sarchashmasi Ruf yozib qoldirgan Abdalonim haqidagi tarixiy voqealari bo‘lib, har ikki epizodda voqealar rivoji, tarixiy makon va zamon bir xil. Faqat tarixiy vogelikning adabiyotga transformatsiyasi jarayonida din, dunyoqarash bilan bog‘liq bir qancha omillar o‘z ta’sirini o‘tkazgan va voqeanning butunlay yangicha, originalidan mutlaqo farqlanuvchi talqinlarini yuzaga keltirgan. Shu bois original vogelik va badiiy transformatsiya o‘rtasida syujet kompozitsiyasiga daxldor aloqagina saqlanib qolgan. Voqeadan ko‘zlangan maqsad, talqin va xulosalar jiddiy o‘zgarishga uchragan. Navoiy tasvirlagan hikoyatning Iskandar tomonidan gadoga taxt taklif etilishigacha bo‘lgan qismi Ruf qayd etgan tarixiy vogelik asosida shakllangan, chunki hikoyatning shu o‘rniga qadar tarixiy vogelik va hikoyat o‘rtasida parallelik saqlangan, biroq hikoyatning davomi va yakuni Ruf qayd etgan tarixiy vogelikka mos emas. Bizningcha, hikoyatning mana shu nuqtadan keyingi o‘rinlari boshqa manba asosida shakllangan va keyinchalik birinchi qismga qo‘shilgan.

Navoiy tasvirlagan hikoyatning ikkinchi qismi va uning bo‘laklari zamirida Aleksandr Makedonskiyning Hindistonda brahmanlar bilan tarixiy uchrashuvni, suhbatlari yotadi. Biroq voqealari sharq adabiyotiga birlamchi tarixiy manbalardan emas, balki ularni qayta ishlash asosida yuzaga kelgan Psevdo-Kallisfenning suryoniy

versiyasidan transformatsiya bo‘lgan. Chunki aynan Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasidagi talqinning yakuni Navoiy tasvirlagan hikoyatga muvofiq keladi. “Aleksandr va brahmanlar suhbat”, bizningcha, “Iskandar va gado” hikoyatining ko‘proq ikkinchi qismiga asos bo‘lgan, lekin ushbu epizod hikoyatning birinchi qismi bilan ham parallellarga ega.

Biz Navoiy ushbu hikoyatni Aleksandr bilan bog‘liq yuqoridagi qadimiy manbalar asosida tasvirlagan, demoqchi emasmiz. Ma’lum bo‘lishicha, ushbu hikoyat sharqda qisman o‘zgarishlar bilan Navoiyga qadar shohlarga nasihat mazmunida yozilgan “Siyosatnoma” tipidagi asarlarda mavjud bo‘lgan. Hikoyat Navoiy dostoniga sharq yoki g‘arb manbasidan (sharqdagi tarjimasi orqali) o‘tgan bo‘lishi ham mumkin. Chunki mazkur obraz va hikoyat Navoiyga qadar sayyor xarakter kasb etib ulgurgan, shubhasiz, bu hikoyatning asoslari G‘azzoliy va Turtushiy tomonidan yaratilgan emas, ularga ham avvalgi manbalardan ko‘chib o‘tgan. Shu bois ushbu hikoyatning tarixiy asoslarini tekshirish mustahkam ilmiy xulosalarga zamin yaratadi.

Mazkur hikoyat fabulasi turli ijodkorlar asarlarida, deyarli, takrorlanadi, biroq ularning ifodasi, talqini va tafsilotlarida xosliklar ko‘zga tashlanadi. Ayni mana shu “xosliklar” har bir ijodkorning maqsadi, dunyoqarashi va mahoratini namoyon etishda asos deb qaralishi va muayyan ijodkorning originalligi ana shu mezon asosida o‘lchanishi kerak. Shunda an’ana va originallik kategoriyalari tog‘ri bahosini topadi. “Iskandar va gado” hikoyatining genezisi va takomiliga Navoiy qo‘sghan hissa, Navoiyning mazkur hikoyatga oid mavjud an’ana doirasidagi originalligi haqida gapirganda, tafsilotlardagi yangilanish, badiiy mantiqning kuchliligi, hikoyatning tasavvufiy talqini: shoh va gado ziddiyati, himmat va faqr maslagi tasviri e’tibor markazida bo‘lishi kerak. Navoiyning ijodiy o‘ziga xosligi mana shu asosda baholansagina, obyektiv va mustahkam xulosalarga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arrian, F. (1962). *Poxod Aleksandra*. Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.
2. Bertels, Y.E. (1965). *Navoi i Djami* (T. 4). Moskva: Nauka.
3. Beruniy, Abu Rayhon. (1965). *Hindiston* (2-t.). Toshkent: Fan.
4. Firdavsiy, A. (1989). *Shohnoma* (7-j.). Dushanbe: Adib.
5. Fotik, Mubashshir ibn. (2013). *Muhtar ul-hikam ve mahosin ul-kalom*. Istanbul: Yozma asarlar qurumi boshqarmasi.
6. G‘azzoliy, Imom Muhammad. (1317). *Nasihat ul-muluk*. Tehron: Majlis.
7. Mirxonid, Muhammad bin Xovandshoh. (1338). *Ravzat us-safo* (1-j.). Tehron: Piruz.
8. Navoiy, Alisher. (2006). *Saddi Iskandariy*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
9. Plutark. (2006). *Saylanma: Iskandar Maqdunli*. Toshkent: Yangi asr avlodni.
10. Ruf, K.K. (1993). *Istoriya Aleksandra Makedonskogo*. Moskva: Izdatelstvo MGU.
11. Schwanbeck, McCrindle, J.W. (1877). *Ancient India as described by Megasthenes and Arrian*. London: Trubner.
12. Steinsaltz, A.E. (2019). *Koren Talmud Bavli* (Vol. 9). Jerusalem: Koren.
13. *The history of Alexander the Great: Being the Syriac version of the Pseudo-Callisthenes*. (1889). Cambridge: Cambridge University Press.
14. Yustin, M.Y. (2005). *Epitoma sochineniya Pompeya Troga “Historiae Philippicae”*. Sankt-Peterburg: Izdatelstvo Sankt-Peterburgskogo universiteta.

REFERENCES

1. Arrian, F. (1962). *Alexander's hike*. Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR.
2. Bertels, E.E. (1965). *Navoi and Jami* (Vol. 4.). Moscow: Science.
3. Beruni, Abu Rayhan. (1965). *India* (Vol. 2). Tashkent: Science.
4. Fatik, Mubashir ibn. (2013). *Mukhtar al-hikam and mahasin al-kalam*. Istanbul: Department of Written Works.
5. Ferdowsi, A. (1989). *Shahnameh* (Vol. 7). Dushanbe: Writer.
6. Ghazali, Imam Muhammad. (1317). *Edification to kings*. Tehran: Assembly.
7. Justin, M.J. (2005). *Epitome of the work of Pompey Trogus "Historiae Philippicae"*. Saint Petersburg: Publishing House of Saint Petersburg University.
8. Mirkhvand, Muhammad ibn Khvandshah. (1338). *The garden of purity* (Vol. 1). Tehran: Blessed.
9. Navoi, Alisher. (2006). *Wall of Iskandar*. Tashkent: Gafur Gulam Publishing House.
10. Plutarch. (2006). *Alexander the Great*. Tashkent: New Century Generation.
11. Ruf, K.K. (1993). *History of Alexander Macedonian*. Moscow: Publishing House of MSU.
12. Schwanbeck, McCrindle, J.W. (1877). *Ancient India as described by Megasthenes and Arrian*. London: Trubner.
13. Steinsaltz, A.E. (2019). *Koren Talmud Bavli* (Vol. 9). Jerusalem: Koren.
14. *The history of Alexander the Great: Being the Syriac version of the Pseudo-Callisthenes*. (1889). Cambridge: Cambridge University Press.